

DMITRIY DMITRIYEVICH SHOSTAKOVICHNING 7-SIMFONIYASI TAHLILI

*Farg'onan viloyati Beshariq tumani 18 - BMSM
Temirova Umidaxon O'lmasjon qizi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada D. Shostakovichning №7 simfoniyasidagi yorqin musiqiy obrazlrarni kuzatishimiz ummkin, mazkur asar kompozitor hayotida muhim ahamiyat kasb etganini bilshimiz mumkin, shu bilan bir qatorda asarni oddiy va yengil yozilgan deb hisoblash mumkin bo'lgan xolatlar va uni rivojlantirishda kompozitor nirlarga e'tibor qaratgani bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Simfoniya, kompozitor, janr, epizod, premyera, teatr, orkestr, ohang, cholg'u, partiya.

Аннотация: В данной статье Д. Симфония № 7 Шостаковича-яркий музыкальный образ, о котором мы можем проследить, это произведение сыграло важную роль в жизни композитора, наряду с которым описаны случаи, когда произведение можно считать простым и легким написанием, и на что обращал внимание композитор при его развитии.

Ключевые слова: Симфония, композитор, жанр, эпизод, премьера, театр, оркестр, мелодия, инструмент, партия.

Annotation: in this article D. Shostakovich's Symphony No. 7, in which we observe a bright musical image, ummkin, we can know that this work was important in the life of the composer, at the same time it was stated that the work focused on the statuses that can be considered simple and lightly written, and what the composer focused on in its development.

Keywords: Symphony, composer, genre, episode, premiere, Theater, Orchestra, melody, instrument, party.

D. Shostakovichning №7 simfoniyasi urush yillarida paydo bo'lgan va mashxur Leningrad qamaliga bag'ishlab yozilgan. Simfoniya 4 qismli bo'lib, birinchi 3ta qismlari aynan 1941-yilning sentabr oyida Leningrad shahrida yozilgan. Oktabrda u oilasi bilan Moskva orqali Kuybishefga keladi va simfoniyani dekadr oyida shu yerda tugatadi. Asar premyerasi 5 maryya Kuybishevda bo'lib o'tadi . kompozitor ushbu simfoniya xaqida quyidagi misralarni keltirib o'tgan:

"Yettinchi simfoniya – kurashimiz, kelayotgan g'alabamiz haqidagi asar... Simfoniya ustida ishlar ekanman men xalqimizning buyukligi, uning qahramonligi, insoniylikning eng yahshi g'oyalari, insonning ajoyib fazilatlari, go'zal tabiatimiz, insonparvarlik, va go'zallik haqida o'yladim!"

Yaratilish tarixi:



Simfoniya yaratish g‘oyasi aniq qachon paydo bo‘lgani aniq emas. Lekin 1930 yillarning oxiri va 1940 yaillarning boshida Ulug‘ Vatan urushi boshlanishidan oldin Shostakovich Ravelning “Bolero”siga o‘xshash passakaliya janrida o‘zgarmas mavzu asosida asar yaratdi. Ushbu asarni u yosh hamkasblari va shogirdlariga ko‘rsatgan. Mavzu avvaliga quruq va oddiy raqsga oxshash ohanglarni eslatadi va barabanlarning sadosi ostida rivojlantiriladi. Bu aynan birinchi qism epizodidagi “bosqinchilik” mavzusi edi.

1941-yil 22-iyunda mamlakatdagi barcha insonlar hayoti kabi Shostakovichning hayoti ham tubdan o‘zgardi. Urush boshlandi va oldingi rejalar bekor qilindi. Butun xalq front uchum ishlay boshladи. Notinch inqilobiy voqealarning taasurotlarini musiqada aks ettirishni niyat qiladi va yettinchi simfoniyanı yoza boshlaydi va yoz oylarida birinchi qism yozib tugatiladi. Sentabr oyida blokada bo‘lgan Leningrad shaxrida ikkinchi qism yaratiladi va o‘z xamkasblariga namoyish etadi. Uchunchi qism ustida ish boshlanganida oktabr oyi edi. Raxbariyatning say’i harakati bilan u ikki farzandi va rafiqasi bilan birgalikda Moskvaga ketishga muvaffaq bo‘ladi. Bir oy o‘tgach Uralga ketish rejalashtiriladi, lekin Shostakovich Kuybeshif (xozirgi Samara shaxri) qolishga qaror qiladi. Chunki bu yerda uning ko‘pgina yaqinlar va albatta Katta teatr bor edi. Tez orada raxbariyat tomonidan kompozitorga darhol xona hamda royal ajratiladi. U simfoniya ustida ishni davom ettiradi. Tom manida bir nafasda yaratilgandastlabki uchta qismdan farqli o‘laroq, final qismi ustida ishslash sekinlik bilan davom etdi.

Va nihoyat 1941 yilnin 27 dekabrida simfoniya tugallandi. Albatta, Shostakovich uni o‘zining sevimli orkestri – Mravinskiy rahbarligidagi Leningrad filarmonik orkestri tomonidan ijro etilishini xohlar edi. Ammo rasmiylar shosholinch premyera namoyish etilishini talab qiladi. Chunki ushbu “Leningrad simfoniyasi” o‘z nomi bilan Leningrad qamaliga bag‘ishlandi va uning ijrosi siyosiy ahamiyatga ega bo‘ldi. Premyera 5 mart kuni 1942 yilda kuybeshiv shaxrida Samuel Samosud rahbarligidagi Katta teatr orkestri ijrosida bo‘lib o‘tdi.

Simfonik orkestr tarkibida 2ta fleyta, alt fleyta, fleyta pikkolo, 2ta goboy, inglis surnayi 2ta klarnet, klarnet-pikkolo, bas-klarnet, 2ta fagot, 4ta valtorna 3ta truba, 3ta trombone, tuba, 5ta litavra, uchburchak, buben, kichik baraban, tarelkalar, kata baraban, tam-tam, ksilofon, 2ta arfa, royal, torli cholg‘ular.

Musiqiy tahlil:

1-qism Sonata-simfonik shaklda bo‘lib rivojlov o‘rniga epizod kiritilgan. Asosiy partiya yorqin do major tonalligida boshlanadi. Milliy ohanglar rus tabiatining go‘zalligini epik tarzda ifodalaydi. Ushbu mavzu boyitiladi va rivojlanadi. Yordamchi partiyada unchalik kontrast bo‘limgan qo‘sish janridagi mavzu yangraydi. Mayin va sokin harakterda ekspozisiya ham yakunlanadi. Pianissimoda barcha cholg‘ular sokinlikni ifoda etadi. Uzoqdan baraban sadolari eshitiladi va ular tobora kreshendo

belgisida kuchayib boradi. Shundan so‘ng musiqiy mavzu ham yangraydi. Bu biz yuqorida aytib o‘tgan rivojlov o‘rniga kiritilgan ekspozisiya mavzusi.

Avvaliga ushbu mavzu mayin ohanglarda yangraydi. Keyin 11martta takrorlanadi va har safar u faktura tomondan tobora boyitiladi, yangi cholg‘u asboblari qo‘shiladi. So‘ngra mavzu bir ovozda emasakkord majmularida yangaray boshlaydi va avj nuqtaga yetdi. Kuchli avjdan so‘ng kutilgan sokin qarama-qarshilik - repriza boshlanadi. Unda asosiy partiya ham, yo‘rdamchi partiya ham minor tonalligida kuychang ohaglarda yangraydi. Ayniqla yordamchi partiya mavzusi juda g‘amgin, kuychan va ohangraboligi bilan ajralib turadi. Fagot cholg‘usida solo partiyasida u yana ham g‘amginroq huddi yig‘I ohanglarini ifodalaydi. Vanihoyat koda qismida asosiy partiya mavzusi major tonalligida takrorlanadi.

2-qism Skerso – murakkab uch qismli shaklda yozilgan bo‘lib, 2ta mavzuga asoslanadi. Birinchi mavzu bayonida – yorqin va yengil musiqa torli cholg‘ular guruhida yangraydi. Skerso janriga hos tarzda kulgu tabassumni ifodalashga xarakat qiladi. Ikkinci mavzu birinchisiga qaraganda kontrast holda yangraydi va romans musiqasini eslatadi. Goboy ijrosida u yanada kuychang va lirik kayfiyatga ega bo‘ladi. Ushbu qismda mavzular o‘zaro o‘rin almashib Leningraddagi mashhur“oydin kechalar”ni eslatadi.

3-qism Adajio – juda salobatli obrazda yozilgan. Xoral janridagi kirish qismi Leningrad qamalida vafot etganlar xaqidagi rekviyemni eslatadi. Skripkalar ijrosida patetik xarakterda birinchi mavzu, undan so‘ng esa flaytalar ijrosida qo‘shiq janriga hos ikkinchi mavzu yangrab o‘tadi. Adajioning o‘rta qismi shiddatli dramatizm va romantik ziddiyatlarga burkangan. Unda ham fojiaviy voqealarning tasvirlarini sezish mumkin. Reprizada ham xoral yana bir bor takrorlanadi va zarbli cholg‘ular ijrosi bilan yanada boyitiladi. Tam tam zarblari va litavralar tremolosi sekin asta so‘ngi qism – Finalga orib boradi.

4-qism Final – litavralar tremolosi va surdinali skripkalar ijrosi bilan boshlanadi. Sekin asta barcha cholg‘ular qoshiladi va ovozlar yig‘iladi. Uzoqdan birinchi qismdagagi asosiy mavzu energiyaga boy xarakterda yangraydi va birin ketin rivojlantiriladi. Undan so‘ng o‘rta qismda sarabanda janrida yangi epizod kiritiladi. Epizodning mavzu ohanglari shunchalik qayg‘uliki u ruhda xalok bo‘lganlar xotirasini aks ettiradi. Reprizada yorqin xarakterdagi asosiy mavzu yana takrorlanadi. Asar so‘ngida ushbu mavzu truba va trombonlar ijrosida yangraydi va yaqinlashayotgan g‘alaba kayfiyatini aks ettiradi. Tantanali g‘alaba ruhida simfoniya yakunlanadi.

Asar premyerasi Kuybishevda bo‘lib o‘tdi va ijodkorning zafarli ijodiy parvozining boshlanishiga aylandi. Simfoniya nafaqat musiqiy, balki siyosiy hayotda ham muhim voqeа bo‘ldi.

O‘sha yillarda simfonianing birinchi qismi ayniqla kuchli taassurot qoldirdi. Chunki u davomiylik jixatidan ham butun simfonianing yarmini o‘rnini tashkil qildi

va taxminan 50 daqiqa davom etdi. Ammo asosiy narsa - tasvirlarning aniqligi. Ular huddi teatr tomoshasi kabi qat'iy sujet ketma-ketligida ochiladi va tomoshabinlarga asar g'oyasini tasavvur qilishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ананьев Б.Г. Очерки психологии Б.Г.Ананьев. Л.: Наука, 1945.-130 с.
2. Афанасьев В.П. К вопросу дифференцированного обучения руководителей народно-инструментальных коллективов в вузах культуры и искусств В.П,Афанасьев, Г.К. Афанасьев Адекватные формы обучения в курсах музыкальных дисциплин: Сб. ст. Тамбов, 1993. 18 24.
3. Botirova X.T. Theoretical fundamentals of development of people's instruments and performing arts in Uzbekistan // International Journal of Early Childhood Special Education // (INT-JECSE) DOI: 10.9756/INT-JECSE/V14I2.657 ISSN: 1308-5581 Vol 14, Issue 02 2022 -P. 5841-5846.
4. Botirova X.T. Specific characteristics of the development of spiritual - moral qualities of students // Frontline Social Sciences and History Journal, 3(06), <https://doi.org/10.37547/social-fsshj-03-06-04-P. 20-30>
5. Botirova X.T. In the practice of instrumental performance, students are taught to think independently and formation of features of creativity // Middle european scientific bulletin // ISSN 2694-9970 118 Middle European Scientific Bulletin, Volume 33. -P. 52-58.
6. Botirova X.T. Scientific and theoretical views of central asian thinkers in music // Procedia of Theoretical and Applied Sciences // Volume 4. Feb 2023 ISSN: 2795-5621. -P. 54-59.
7. Акмалжонова М.В. "Дирижирование" (методы работ над партитурой). Ташкент, 2017.
8. Botirova X.T. The Role of Pop Art in the Education of Students-Youth in the Spirit of Morality and Patriotism // Web of Scholars: Multidimensional Research Journal (MRJ) // Volume: 01 Issue: 07. 2022 ISSN: (2751-7543). -P. 87-90.
9. Botirova, Xilola Tursunbaevna. "THE PLACE OF MUSIC IN UPBRINGING OF YOUNG PEOPLE." *Science and Education* 1.1 (2020): 512-517.
10. Botirova X.T. Activities of the "History and Criticism of Music" Department During the Years of Independence // Middle European Scientific Bulletin // ISSN 2694-9970 118, Volume 33. Feb-2023 -P. 118-121.
11. Баренбойм Л.А. Музыкальная педагогика и исполнительство Л.А.Баренбойм. Л.: Музыка, 1974. 250 с.
12. Вопросы воспитания музыканта-исполнителя: Сб. трудов. М.: ГМПИ им. Гнесиных, 1983. Выш.68. 168 с.